KLASTER ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARI EKSPORT SALOHIYATINI YUKSALTIRISH MASALALARI

Tojimamatova Gulzoda Xusnidin qizi
Andijon davlat universiteti Huquq-iqtisod fakulteti Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi
tojimamatovagulzodaxon@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23083420

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlaktimizda, shu jumladan Namangan viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etilishi natijasida paxta xom-ashyosini to'la qayta ishlash yo'lga qo'yilayotganligi tufayli qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar ishlab chiqilayotganligi va bu mahsulotlar jahon bozorlariga eksport qilinayotganligi yoritib berilgan. Shuningdek, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan masalalarga ham to'xtalib o'tilgan, ya'ni Namangan viloyatidagi paxta-to'qimachilik klasterlarida besh bosqichli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarurligi yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: paxta xom-ashyosi ishlab chiqaruvchi, qayta ishlovchi korxonalar, tadbirkorlik, bandlik, texnopolis, texnopark, integratsiya, eksport, klaster, modernizatsiya, diversifikatsiya, kredit, salohiyat, hudud, raqobatbardoshlik.

Prezidentimizning parlament va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida 2023 yilda tayyor mahsulotlar eksportini qo'shimcha 4 milliard dollarga, eksportning umumiy hajmini esa ilk bor 23 milliard dollardan oshirish vazifasini qo'yildi. Ushbu maqsadga erishish yo'lida eksport qiluvchilarga transport va boshqa xarajatlarini kompensatsiya qilish davom ettirilsa, mahsulotlar eksporti bo'yicha hozirgi 9 ta bosqichdan iborat bojxona rasmiylashtiruvi 3 barobar qisqaradi. Bizga ma'lumki, eksport - har qanday davlat iqtisodiyotini tashqi bozorda nechog'lik raqobatbardosh ekanligini belgilab beruvchi barometr hisoblanadi. Shu mezon bilan o'lchaydigan bo'lsak, O'zbekiston iqtisodiyotida sifat o'zgarishlari kuztilayotganligini ko'rish mumkin. Eksport hajmi oxirgi besh yilda 5 milliard dollarga oshib, 19 milliard dollarga yetdi. Jahonda global inqiroz hali chekinmagan bugungi murakkab sharoitda shunday natijaga erishishda paxta-to'qimachilik klasterlari muhim o'rin egallamoqda. Yaqin kelajakda Yevropa bozorlariga to'qimachilik, elektr texnikasi, charm-poyabzal va boshqa tayyor mahsulotlar eksportini kamida 2 barobar oshirilishi ko'zda tutilgan. Eksport salohiyatimiz yuksalishida paxta-to'qimachilik klasterlari drayverga aylanadi. Negaki, davlatimiz rahbari tomonidan to'qimachilik mahsulotlari eksportini dastlabki bosqichda 5 milliardga, 2026 yilgacha esa 7 milliardga yetkazish vazifasini qo'yildi. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan klasterlar va ularning ishlab chiqarish salohiyati buni bemalol uddalash mumkinligini ko'rsatmoqda. Ya'ni 2022 yil yakunlari bo'yicha eksport 3,2 milliard dollarga yetkazilmoqda. 2023 yilda esa ushbu raqamni keskin oshirish chora-tadbirlari hozirdanoq pishiq-puxta ko'rilyapti. Ya'ni klasterlar tomonidan 225,6 million dollar investisiyalar jalb etilishi, 331 ta yirik loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Buning natijasida 32,1 mingta yangi ish joylari yaratilishi, eksport hajmi 5 milliard dollardan oshishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbari to'qimachilik sanoatiga doir chiqishlarida paxtani chuqur qayta ishlashni jadallashtirish va tayer mahsulot ulushini oshirish asosiy maqsad ekanligini bir necha bor ta'kidladi. Jumladan, 2022 yil 20 dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatida ham Davlatimiz rahbari to'qimachilik

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

sanoatida eksport xajmini 1.5 barobarga oshirish, ya'ni 5 milliard dollarga yetkazish vazifasini ko'ydi. Bunda mavjud GSP+ preferensiyalaridan foydalanib Yevropa bozoriga 500 million dollar mahsulot eksportini yetkazib berish ustuvor vazifa ekanligi belgilandi. Paxta tolasi eksport qilishni to'liq to'xtatilishi tadbirkorlarnimizni mavjud ichki imkoniyatlardan unumli foydalanishlariga olib keldi va ijobiy natijalarni bera boshladi.

Mamlakatimizda paxta-to'qimachilik sanoatini rivojlanishida agrar tarmoqda faoliyat yuritayotgan 134 ta paxta-to'qimachilik klasterlari asosiy hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Bugungi kunda paxta xom-ashyosini yetishtirishdan tortib, uni chuqur qayta ishlashda klaster tizimidagi korxonalar yetakchi kuchga aylanganligi tufayli mazkur tizimni rivojlantirishga va uni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Biz uchun strategik tarmoq bo'lgan qishloq xo'jaligi samardorligini tubdan oshirish va uni diversifikatsiya qilish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini klaster asosida qayta ishlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dolzarb vazifamiz bo'lib qoladi"-dedi Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2024 yil 6 noyabrda bo'lib o'tgan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan ma'ruzasida.[1]

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining uchinchi-milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash yo'nalishida to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko'paytirish va mehnat unumdorligini 3 barobarga oshirish nazarda tutilgan. Bularni barchasi paxta-to'qimachilik sanoatida yetakchi kuchga aylangan klasterlar zimmasiga mas'uliyatli vazifa yuklanayotganligini bildiradi. Shu nuqtai nazardan klaster usuli tobora ommalashib bormoqda. Natijada mazkur innovasion tizim qishloq joylarida yashayotgan aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini ko'paytirish orqali turmush darajasini oshirish va agrar sohada smaradorlikni o'sishini asosiy omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Paxtachilikda to'liq klaster usuliga o'tilgach, nafaqat xom-ashyo yetishtirish, balki uni chuqur qayta tshlashda ham tub o'zgarishlar yuzaga keldi. Gap shundaki, mustaqillikning dastlabki yillarida yurtimizda yetishtirilgan paxta xom-ashyosining taxminan 7 foizi o'zimizda qayta ishlanib, 2024 yilda bu ko'rsatkich jami 37 foizga yetkazilgan edi. Hozirgi kunda O'zbekiston o'z paxta tolasini 100 foiz qayta ishlash quvvatiga ega bo'ldi. Buning evaziga xom-ashyo eksporti batamom to'xtatildi. Aksincha, qayta ishlanib, qo'shimcha qiymatga ega mahsulot sifatida eksport qilina boshlandi.

2025 yil 7 may kuni Toshkentda mahalliy to'qimachilik sanoatini rivojlantirish va uni "GSP+"[1] tizimiga asosan Yevropa Ittifoqi bozorida targ'ib qilishga bag'ishlangan "Yangi O'zbekiston to'qimachiligi: Yevropa Ittifoqida "GSP+"ning benefisiari" nomli forum bo'lib o'tdi. Bu tadbir "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi tomonidan Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), O'zbekistonning Belgiyadagi elchixonasi va Eksportni rivojlantirish agentligi ko'magida tashkil etildi. "GSP+" tizimi sanoat mahsulotlari, jumladan, o'zbek to'qimachilik va tikuv-trikotaj tovarlarining Yevropa bozorlariga eksport qilinishida katta imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda O'zbekiston 65 mamlakatga, jumladan, Yevropa Ittifoqiga to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilmoqda. Misol uchun 2020 yilda "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi

---

[1] GSP — бу «General System of Preferences» (Имтиёзлар бош тизими) иборасининг қисқартмаси. Маълумот учун: преференциялар бош тизими (GSP +) бу ривожланаётган мамлакатлар томонидан ривожланган мамлакатларга экспорт қилинадиган товарларга имтиёзли божхона тарифлари тизими. GSP + деярли барча саноат ва айрим қишлоқ хўжалик маҳсулотларини қамраб олади.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

tizimidagi korxonalar tomonidan 74 million dollarlik mahsulotlar eksport qilingan bo'lsa, 2021 yilda ushbu ko'rsatkich 142,1 million dollarni tashkil etdi.

Yevropa komissiyasi qaroriga ko'ra O'zbekiston "GSP+" (Pereferensiyalar bosh tizimi plyus benefisiari) mamlakati maqomini olishi bilan o'zbek ishlab chiqaruvchilari va eksportchilari o'z mahsulotlarini Yevropa bozoriga eksport qilishda bir tomonlama tarif imtiyozlaridan foydalana boshlaydi.

2024 yil 357 dan ziyod loyihalar amalga oshiriladi. Natijada O'zbekiston paxta to'qimachilik klasterlari uyushmasi tizimidagi klasterlar tomonidan 1,36 milliard dollar miqdorida investisiya o'zlashtiririlib, 200 dan ortiq yangi quvvatlar foydalanishga topshiriladi. Buning hisobiga tolani chuqur qayta ishlash hajmi 130 foizga ortadi, 100,4 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratiladi. Eksport hajmi esa 1,5 barobar ko'payadi.[3]

Bularni barchasi Respublikamiz eksport salohiyatini oshirish, eksport korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, milliy mahsulotlarning xorijiy bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash va valyuta tushumini ko'paytirish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalda bajarilishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar deb e'tirof etish mumkin.

2025 yil 20 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan bilan ochiq muloqotida ham bu masalaga alohida to'xtalib o'tgan edi. "Eng asosiysi el-yurtimiz o'rtasida va davlat idoralarida tadbirkorlarga nisbatan munosabat o'zgardi, jamiyatda ularing obro'si va mavqei kun sayin tobora ortib bormoqda. Natijada ichki va tashqi bozorda o'z mustahkam o'rnini, nufuzi va brendiga ega bo'lgan haqiqiy tadbirkorlarimiz sinfi shakllana boshladi.

Mamlakatimizda mavjud xom-ashyo bazasidan unumli foydalangan holda klasterlar tomonidan ip-kalavani qayta ishlash darajasini kelgusi ikki yilda hozirgi 50 foizdan 70 foizga yetkazish mo'ljallangan. Shundan kelib chiqib, ularga moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish yo'lga qo'yildi. Jumladan, matoni bo'yash va aralash mato ishlab chiqaradigan uskunalar xaridi uchun korxona quvvatiga qarab davlat hisobidan moliyaviy grantlar beriladi. Shuningdek, bunday loyihalarni kreditlash uchun yana 150 million dollar ajratish mo'ljallangan.

Bo'yalgan mato va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarning eksportini qo'llab-quvvatlash uchun davlat tomonidan past foizlarda 100 million dollarlik yangi kredit liniyasi ochiladi. Yuqoridagi tovarlarning kamida 80 foizini eksport qiluvchi klasterlar va boshqa to'qimachilik korxonalari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 3 yil muddatga maldagi 12 foiz o'rniga 1 foiz qilib belgilanadi. Shuningdek, ularga mol-mulk solig'ini 3 yilga kechiktirib to'lash imkoniyati ham beriladi. Buning hisobiga tadbirkorlik korxonalari ixtiyorida yiliga kamida 500 milliard so'm mablag' qoladi.

Xozirda mavjud tizim ip-kalava chuqur qayta ishlash evaziga uni eksportini qisqartirish va bu jarayonni bosqichma bosqich amalga oshirish ko'zda tutilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5989-sonli Farmoniga bilan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali paxta ip-kalavasi va trikotaj matoni (bo'yalgan trikotaj matodan tashqari) olib chiqishda 2021 yil 1 yanvardan boshlab olib chiqiladigan har bir kilogramm ip-kalava uchun 0,01 AQSH dollari, 2022 yil 1 yanvardan olib chiqiladigan har bir kilogramm ip-kalava va trikotaj mato uchun 0,05 AQSH dollari, 2023 yil 1 yanvardan -0,1 AQSH dollari, 2025 yil 1 yanvardan-0,2 AQSH dollari miqdorida yig'im undirilishi belgilangan. Tadqiqotlar va o'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda yetishtirilayetgan 1.1 mln.ton paxta tolasini ryespublika ichida 100 % qayta ishlashga erishilgan bo'lsada, ammo ishlab chiqarilgan ip-kalavaning 40% qayta

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ishlab chiqariladi, qolgan 60 % eksportga yo'naltirilmoqda. Respublika to'qimachilik sanoati mahsulotlari eksportining 45 % ni ip-kalava mahsulotlari tashkil etib, ular asosan Turkiya, Xitoy, MDH davlatlari bozorlari hisobiga to'g'ri kelmoqda.

2023 yilda to'qimachilik sanoatini rivojlantirish strategiyasiga asosan mahsulot eksportini deyarli 1,5 barobarga oshirish eng avvalo ip-kalavani chuqur qayta ishlashni 60% ga yetkazish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, jumladan, uy tekstili va gilam mahsulotlarini ishlab chiqarishni jadallashtirish, sun'iy tolani qayta ishlashni yillik 80 ming tonnaga oshirish, 50 dan ortiq yangi mahsulotlarni mahalliylashtirish va o'zlashtirish evaziga erishish ko'zda tutilgan.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali paxta ip-kalavasi olib chiqishda 2023 yil 1 yanvardan boshlab olib chiqiladigan har bir kilogramm ip-kalava uchun 0,1 AQSH dollari miqdorida yig'im undirilmoqda

Jahonda ro'y berayotgan globallshuv sharoitida siyosiy va iqtisodiy jarayonlar tarmoq korxonalari faoliyatiga ta'sirini yumshatish hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar, jumladan, yigiruv fabrikalari va klasterlarni qo'llab-quvvatlash, ularning tashqi bozorda raqobatbardoshligini saqlab qolish maqsadida "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5989-sonli Farmonining 8b bandiga o'zgartirish kiritish, ya'ni 2023 yilning 1 yanvaridan boshlab eksport qilingan har bir kilogram ip-kalava uchun 0.05 AQSH dollari miqdorida yig'im undirish va 2022 yil darajasini saqlab qolinishini ko'zda tutuvchi Farmon loyihasi ishlab chiqildi, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishildi va tasdiqlash uchun taqdim etildi.

Keyingi yillarda xorij bozorida paxta-to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talab borgan sari ortib bormoqda. Shu sababli jahonning eng yirik halqaro brendlari bosqichma-bosqich ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish tizimiga o'tmoqda. Xususan, "Adidas", "H&M", "Nike" brendlari 2025 yilgacha to'liq organik (ekologik toza) paxta tolasi asosida mahsulot yetkazib berishni rejalashtirgan. Biroq bugungi kunda dunyoda yetishtirilayotgan paxtaning atiga 8 foizi organik hisoblanadi.

Jahon bozorida organik paxta tolasiga o'sib borayotgan ehtiyoj O'zbekiston uchun qulay imkoniyatdir. Mamlakatimizda yuqoridagi yangi bozorga kirish va o'z mahsulotlari bilan to'ldirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu borada amaliy ishga kirishildi.

Kelgusida to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish va ularni eksport salohiyatini oshirishda quyidagi fikr mulohazalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

1.Klasterlar tizimida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'yektlari, xususan fermer xo'jaliklari bilan klasterlar o'rtasida paxta xom-ashyosini yetishtirish bo'yicha tuzilgan shartnoma shartlarini qat'iy bajarilishini ta'minlash;

2.Paxta-to'qimachilik klasterlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash asosida ilg'or texnika va texnologiyalar bilan qurollantirish;

3.Mamlakatimizning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Namangan viloyatida ham (ekologik toza) organik paxta xom-ashyosini yetishtirishni yo'lga qo'yish va yildan-yilga ko'paytirib borish chora-tadbirlarini belgilash. Buning uchun organik paxta xom-ashyosini yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari uchun ma'lum bir imtiyozlar berish;

3.Namangan viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlarini faoliyatini besh bosqichga o'tkazish, ya'ni tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va bu jarayonni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini ishlab chiqish;

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

4.Paxta-to'qimachilik klasterlarini eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi logistika xizmatlari markazlari faoliyatini kengaytirish;

5. Paxta-to'qimachilik klasterlarini eksport salohiyatini oshirish bo'yicha marketing tadqiqotlarini kengaytirish. Jahon bozoridagi paxta-to'qimachilik mahsuloatlariga talab va taklifni muntazam o'rganib borish va ular o'rtasidagi nisbatni o'zgarishiga qarab bozor kon'yukturasiga msolashish chora-tadbirlarini belgilash;

6.O'zbekiston paxtasiga "Cotton Campaign" xalqaro koalisiyasi tomonidan 2009 yilda qilingan boykotni 2022 yil 10 mart kunida bekor qilinishi tufayli to'qimachilik korxonalarining jahon bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengayganligini e'tiborga olgan holda eksport salohiyatini yanada kengaytirish.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki yuqoridagi fikr-mulohaza va takliflarni e'tiborga olish joylarda tashkil etilgan paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlanishiga, ularni eksport salohiyatini ortishiga va mamlakatimiz hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etilishiga ijobiy ta'sir etadi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi gazetasi. 2021 yil 6 noyabrь.
2. "Tadbirkorlikni jadal va yanada keng rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratish-eng muhim vazifamizdir". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqi. "Yangi O'zbekiston" gazetasi № 169, 2021 yil 21 avgust.
3. S. Tojiyev. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1,4 baravarga oshiriladi. Bunda paxta-to'qimachilik klasterlari lokomotiv vazifasini o'taydi. Xalq so'zi gazetasi. 2022 yil 15 yanvar. № 10 (8072).
4. S. Tojiyev. Jasoratli mehnat — barqaror taraqqiyot kaliti. Xalq so'zi gazetasi. 2023 yil 6 yanvar.
5. O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti. https://uza.uz/uz/posts
6. Namangan viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasining ma'lumotlari. 2022 yil.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.